

BADIIY USLUB VA QAHRAMON MA'NAVIYATINI AKS ETTIRILISHI

*Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
Namangan davlat universiteti, Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi kafedrasi professori, f.f.n.
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com*

Annotatsiya: O'zbek nasrchiligi ravnaqida Shukur Xolmirzayevning o'rni kattadir. Sababi, adib o'z ijodida qahramonlarni keng, epik ko'lamda, badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan aks ettirib bera olgan ijodkordir. Sh.Xolmirzayevning hikoyalaridagi qahramon, eng avvalo, o'zining ruhiy va aqliy salohiyatining rang-barang shakllari bilan namoyon bo'ladi. Sh.Xolmirzayev o'z qahramonlarining ichki hayoti va ruhiy kechinmalarini, aql-zakovatini, umuman ma'naviy olamini ochish bilan jamiyatimizdagi, millatimiz orasidagi mavjud hayotiy tiplarning umumlashma obrazini ko'rsata oldi deyish mumkin. Ushbu maqolada adibning "Sog'inch" hikoyasi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: estetik kategoriyalar, inson obrazi, xarakter, qahramon xarakteri, obrazlar tizimi, syujet o'zaklari, qahramonlar taqdiri, o'y-kechinmalari, ma'naviy dunyosi, badiiylik, yozuvchi mahorati, so'z san'atining o'rni, badiiy-tasviriy vosita, yozuvchining xarakter yaratish mahorati, hayot voqealar.

ОТРАЖЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО СТИЛЯ И ДУХОВНОСТИ

ГЕРОЯ

*Хамидова Мухайёхон Обидовна
Наманганский государственный университет, профессор кафедры методики преподавания социально-гуманитарных дисциплин в начальных классах, кандидат филологических наук, профессор НамГУ
E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com*

Аннотация: Шукур Холмирзаев занимает большое место в развитии узбекской прозы. Причина в том, что писатель — творец, способный изобразить героев своего произведения в широком, эпическом масштабе, с высоким художественным мастерством. Герой в рассказах Ш. Холмирзаева, прежде всего, проявляет в различных формах свой духовный и умственный потенциал. Можно сказать, что Ш. Холмирзаев сумел показать общий образ существующих в нашем обществе и народе типов жизни, раскрыв внутреннюю жизнь и духовные переживания, интеллект и общий духовный мир своих персонажей. В данной статье рассматривается и анализируется рассказ писателя «Тоска».

Ключевые слова: эстетические категории, образ человека, персонаж, характер героя, система образов, сюжетные части, судьбы персонажей, мысли, духовный мир, художественность, писательское мастерство, роль речевого искусства, художественно-изобразительные средства, умение писателя создавать характеры, жизненные события.

THE ARTISTIC STYLE AND REFLECTION OF THE HERO'S SPIRITUALITY

*Khamidova Mukhayyoxon Obidovna
Namangan State University, Professor of the Department of Teaching Methodology of Social and Humanities in Primary Education, Candidate of Philological Sciences*

Annotation: *Shukur Kholmirzayev has a great place in the development of Uzbek prose. The reason is that the writer is a creator who can portray heroes in his work on a wide, epic scale, with high artistic skill. The hero in the stories of Sh. Kholmirzayev, first of all, shows his spiritual and mental potential in various forms. It can be said that Sh. Kholmirzaev was able to reveal the inner life and spiritual experiences, intelligence, and general spiritual world of his characters, showing a generalized image of the existing life types in our society and nation. This article reflects on the writer's story "Longing".*

Key words: aesthetic categories, human image, character, hero's character, system of images, plot cores, characters' fate, thoughts, spiritual world, artistry, writing skills, role of speech art, artistic **and visual** means, the writer's ability to create characters, life events.

KIRISH

Shukur Xolmirzayev kamdan-kam qalam ahliga nasib etadigan baxtli-omadli yozuvchi edi. Talabalik yillaridayoq kitoblari chop etilib, yozuvchi sifatida tanilgan va tan olingan. Universitetning to'rtinchi kursida o'qiyotganida Abdulla Qahhordek adibdan "To'lqinlar" qissasi ma'qullab yozilgan xat olgan. Yosh yozuvchi bundan hovliqib, o'zini yo'qotib qo'ymagan.

Sh.Xolmirzayev ijodi doimo adabiy tanqidchilikning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Jumladan, U.Normatov, O.Tog'ayev, I.G'afurov, A.Kattabekov, H.Boltaboyev, X.Do'stmuhammedov va boshqalarning tadqiqot, risola hamda maqolalarida Sh.Xolmirzayev asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini xususida fikr va mulohazalar bildirilgan. Ushbu tilga olingan ishlarda Sh.Xolmirzayevning uslubiy izlanishlariga doir ayrim ilmiy mulohazalar ham mavjud. Masalan,

U.Normatov Sh.Xolmirzayev bilan qilgan suhbatida yozuvchi uslubiga oid o'z mulohazalarini quyidagicha bayon etgan: "Siz saviyasi baland kitobxonni ko'z oldingizga keltirib turib qalam tebratsangiz kerak. Siz qalamga olgan hodisalar aksari dramatismga, ehtirolarga nihoyatda boy bo'ladi, lekin siz ularni iloji boricha pinhon tutasiz, kitobxonning o'zi ilg'ab olishiga ishonasiz, Bu hol ba'zan tasvirdagi ta'sirchanlikni, jozibani susaytirib qo'yadi" [1, 105]. Yana shu muallif O'.Hoshimov bilan qilgan suhbatida esa yozuvchi uslubining individual xarakteri haqida fikr yuritib: "Shuni ham unutmaslik kerakki, bir yozuvchi umrbod biror uslubiy yo'nalish doirasida qololmaydi. Masalan, sizga tengdosh yozuvchilardan

biri Sh.Xolmirzayev ko‘proq, olis tasvir yo‘liga moyil. Biroq u ham ba'zan liro-publitsistik ruh barq urib turgan asar yaratadi”, - deydi [4, 342].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotshunos olim O.Tog‘ayev o‘zining “Tasvir va muddao” nomli maqolasida “So‘nggi bekat” romani haqida fikr yuritar ekan, yozuvchining o‘ziga xos individual uslubini kuzatish asosida chiqargan xulosalarini shunday umumlashtiradi: Sh.Xolmirzayev hayotga uning o‘z bo‘yoqlari bilan xiyol jilo berib, xolisona manzaralar chizuvchi o‘ziga xos original ijodkor. Inson tuyg‘ulari, qahramon kechinmalari haqida ham qaynoq, oshkor nafas bilan gapirmaydi. Munosabatlar, manzaralar, detallarning quyma tasviri, nutq, vositalari orqali tuyg‘ular suratini chizadi” [7, 118]. Yozuvchi uslubi haqidagi bu kabi samimiy fikrlar Sh.Xolmirzayev ijodining umumiy xususiyatlarinigina oydinlashtiradi, xolos. Lekin har bir yozuvchi o‘z uslubini avvalo janr imkoniyatlari doirasida namoyon etadi. Masalan, muayyan yozuvchining romanidagi uslubiy jilolar shu ijodkorning hikoyalaridagi uslub ko‘rinishlaridan ozmi-ko‘pmi farqlanadi va bu o‘zgachalik janr imkoniyatlari bilan belgilanadi, Shu jihatdan qaraganda Sh.Xolmirzayevning hikoyachilikdagi uslubiy izlanishlari samarali va e‘tiborga loyiqdir

Adabiyotshunos olim H.Boltaboyev “Nasr va uslub” risolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos uslubni aniqlashga kirishar ekan, uning o‘ziga xos jihatlarini quyidagicha izohlaydi: a) muayyan xarakter va qahramonlarga qayta-qayta murojaat etish; b) ularning fe'l-atvori va xarakterini har tomonlama tekshirish; v) qahramonlarning nutqi va xatti-harakati orqali voqyelikni ko‘rsatishga e‘tiborni qaratish” [1, 105].

Adabiyotshunos olim I.G‘afurov esa Sh.Xolmirzayev nasriy asarlarini tahdil eta turib, uning uslubiga xos yangi bir fazilatni aniqlagan. Olimning bayon etishicha, yozuvchi katta nasriy asarlari, hatto romanlarida ham hikoyaga xos tasvirlash uslubidan foydalanadi. Shu sababli uning romanlari hikoya o‘qigandek o‘qiladi, holatlar tasviri cho‘ziladi. Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayonki, Sh.Xolmirzayevning narsrchilikdagi mahorati va individual uslubini o‘rganish

bugungi o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridandir. Lekin hozirgacha yozuvchining individual uslubi alohida tadqiqot mavzui sifatida o'rganilmaganidek, uning nasrchilikdagi uslubiy izlanishlari to'g'risida ham maxsus ilmiy ish yaratilgan emas.

Badiiy adabiyotdagi estetik kategoriyalar inson obrazini tasvirlash san'ati bilan uzviy bog'langandir. Zotan, adabiyotning o'ziga xos xususiyatini belgilovchi bosh maqsadi ham insonning turli xil ruhiy kechinmalari, uning ma'naviy olami, hayotda tutgan o'rni va orzu- intilishlarini tasvirlashdan iboratdir. Shu sababdan dam akademik Izzat Sulton "Insonshunoslikdan iborat badiiy adabiyot asarida biz odamlarning turli darajada tafsilot va chuqurlik bilan tasvirlanganligining guvohi bo'lamiz" [2, 12], - deb yozgan edi. Badiiy asarda tasvirlangan inson obrazi qahramon tushunchasini anglatadi. Yozuvchining hayotdagi voqyealarga yoki ma'lum bir toifadagi kishilarga o'zining badiiy asarida bildirgan estetik munosabatining o'ziga xos hosilasi qahramon yoki obrazlar tizimi tarzida ifoda etiladi. Qahramon tushunchasi adabiyotshunoslikda xarakter yo obraz atamalari bilan ham yuritiladi. I.Sultonning fikricha: "Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir" [5, 191]. Adabiyotshunoslik atamalari lug'atida xarakterning adabiy hodisa sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari shunday izohlanadi: "U jamiyat taraqqiyoti, badiiy tafakkurning o'sib borishi bilan bog'liq holda tobora murakkab, serqirra bo'lib, mukammallashib boradi. Bu hol o'z navbatida xarakter yaratish usul va imkoniyatlarining rivoji bilan bog'liq. Masalan, xalq eposida xarakter ijtimoiy ideal asosida yaratilgan bo'lsa, hozirgi davr adabiyotida individual xususiyatlarga boy, takrorlanmas holda yaratiladi" [8, 348].

Demak, badiiy adabiyotdagi qahramon xakteri hozirgi davr adabiyotida o'ziga xos ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Buni biz hozirgi o'zbek nasrchiligining obrazlar tizimi va qahramonlari misolida ham yaqqol ko'ra olamiz.

O'zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov va boshqalarning hikoyalarida serqirra ma'naviy olam sohibi va o'ziga xos taqdir egasi bo'lgan kishilarning rang-barang obrazlari yaratilgan. Bunday

hikoyalarning yaxshi namunalari haqida fikr yuritilganda Abdulla Qahhorning “Mahalla”, “Nurli cho‘qqilar”, Said Ahmadning “Cho‘l burguti”, “Bahor qizlari”, Asqad Muxtorning “Xonimning tug‘ilgan kunlari”, “To‘qqizinchil palata”, Hamid G‘ulomning “Qo‘shiq”, “Qiz va amaki”, Saida Zunnunovaning “Aka”, “Yolg‘izlik”, “Yoshlik bilan yuzma-yuz”, Pirimqul Qodirovning “Jon shirin”, “Kayf”, Odil Yoqubovning “Baxt qushi”, “Yaxshilik”, Shukur Xolmirzayevning “Oy yorug‘ida”, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni”, O‘lmas Umarbekovning “Nomus” kabi bir necha hikoyalarini ko‘rsatish mumkin. Bu hikoyalarda inson hayotining eng shiddatli voqyealari, chigal takdirlar-u fojiali kechmishlari, qahramonona voqyealarga boy yulduzli onlari o‘zining ta’sirchan ifodasini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shukur Xolmirzayev ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning asarlarida hayotning bir bo‘lagini ko‘rishimiz mumkin. Adibning hikoyalarida atrofimizda yaqqol ko‘rinib turgan, hozirgi davrda bizni o‘ylantirayotgan dolzarb muammolar hamda voqyea-hodisalar muhim o‘rin tutadi. Shukur Xolmirzayev asarlaridagi oddiylik, xalqqa yaqinlik ijodkor uslubiga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Uning Sh.Xolmirzayevning dastlabki hikoyalaridan biri “Sog‘inch”da bu fikrning yaqqol dalili bo‘la oladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Shukur Xolmirzayev mazkur asarida hayot voqealarini, ziddiyatlarini yoritib bergan va ularga o‘z munosabatini bildirgan. Kichik-kichik hayotiy tasvir manzaralarida katta-katta muammolarni qo‘ygan. Hayotdan tanlab olgan hodisa va voqealarning eng nozik tomonlari, xarakterli nuqtalarni topib, ularni ikr-chikrigacha tasvirlaydi va bu orqali inson va jamiyat, insonlar o‘rtasidagi munosabatni chuqur badiiy tahlil qiladi. Insonni, qahramonlar kechinmalarini, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni, ma’naviy qadriyatlarni bor bo‘yi bilan tasvirlaydi. Asarning badiiyligini ta’minlaydigan birinchi omil sifatida muallif o‘zini qiziqtirgan, o‘ziga yaxshi tanish bo‘lgan materiallar haqida yozadi.

Ma'lumki, qat'iy bir yo'sin-yo'nalishdan chetga chiqmay qalam tebratib kelayotgan nasrnavis Sh.Xolmirzayev ijodining keyingi bosqichida uning o'zi mustahkam egallagan an'ana va tamoyillardan farqli o'laroq asarlar yaratilmoqdaki, ular ham yangicha izlanishlar sifatida e'tiborga molik.

Nasrchilikda yangi qahramonlarning tug'ilishi esa o'z navbatida yangi ifoda vositalari, o'ziga xos uslubni talab etadi. Shuningdek, hikoyachilikda yangi qahramon obrazini yaratish ko'p jihatdan badiiyatga - til, uslub, syujet, kompozitsiya, konflikt va boshqa shu kabi vositalar sohasida izlanishni ham taqozo qiladi. Yozuvchi inson taqdiridagi nozik, murakkab holatlarni hamda shu inson sajiyasidagi muhim hislatlarni, uning ma'naviy olamini tasvirlashga harakat qilsayu, ammo yangi ifoda vositalarini topishga erisha olmasa, u o'zining g'oyaviy niyatini to'la ifodalay olmaydi. Hikoyada qahramonlar obrazini badiiy vositalarning yangicha ko'rinishlari bilan berish tamoyili 60-yillarda o'zbek adabiyotiga kirib kelgan Sh.Xolmirzayev ijodida o'ziga xos uslub sifatida ko'rina boshladi. Uning "Olis yulduzlar ostida" (1968) nomli to'plamiga kiritilgan ilk hikoyalaridayoq, ana shu tamoyil o'z ifodasini topgan edi. Yozuvchi o'zining dastlabki hikoyalaridan boshlab hayotda o'z o'rniga, muayyan ijtimoiy mavqyega, o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan qahramonlar obrazini olib kirdi. Uning qahramonlari tabiatning go'zal qo'ynida ulg'aygan qishloq odamlari, qishloqda kamol topib, shaharda o'qigan va shu yerda qolib, turli vazifalarda ishlayotgan kishilardir. Demak, qishloq tabiati, unda ulg'aygan inson, bu insonning tabiatdan uzoqlashib shaharga kelishi va yana qishloqqa, tabiatga, birga o'sgan do'stlariga intilishi Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi hayot va inson tasvirining asosiy syujet o'zaklarini tashkil etadi. Ayni paytda yozuvchining dastlabki hikoyalaridan boshlab bo'rtib ko'zga tashlangan va butun ijodida qayta-qayta qo'llanilgan tasvir usuli uning hikoyachilikdagi o'ziga xos uslubini tashkil etuvchi unsurlar darajasiga ko'tarilganligi e'tiborga loyiqdir. Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi syujet o'zaklarining o'zaro yaqinligi yozuvchi faqat bir xil qahramonlar taqdirini tasvirlaydi va bir xil mazmundagi voqyealarni qalamga oladi, degan fikrni uyg'otmasligi kerak. Zero, uning hikoyalarida tasvirlangan qahramonlar bir mavzu

atrofida hrakat qilsalar-da, ularning jamiyatga, tevarak-atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatlarida, o'y-kechinmalarida, ma'naviy dunyosida bir-birini takrorlamaslik darajasidagi rang-baranglik mavjudki, bu yozuvchining badiiy iqtidori va poetik so'zni his qilish tamoyili nihoyatda teranligini ko'rsatadi.

60-yillar o'zbek hikoyachiligiga Sh.Xolmirzayev qahramonning qanday yangi tipini olib kirdi? Bizningcha, uning hikoyalaridagi qahramon, eng avvalo, o'zining ruhiy va aqliy salohiyatining rang-barang shakllari bilan namoyon bo'ladi. Sh.Xolmirzayev o'z qahramonlarining ichki hayoti va ruhiy kechinmalarini, aql-zakovatini, umuman ma'naviy olamini ochish bilan jamiyatimizdagi, millatimiz orasidagi mavjud hayotiy tiplarning umumlashma obrazini ko'rsata oldi.

Sh.Xolmirzayevning dastlabki hikoyalaridan biri "Sog'inch"dir. Bu asarda ikki qadrdon do'stning - qishloqda birga o'sib birga katta bo'lgan Azim va Ismatning obrazi yaratilgan. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi ham turlicha: Azim maktab direktorining farzandi, Ismat esa maktab qorovuli oilasida tug'ilib o'sgan. Ular maktabda birga o'qishadi. Lekin yozuvchi aytganidek, taqdir g'alati ekan: Azim taniqli rahbar bo'lib shaharda qolib ketadi. Ismat esa oddiy xizmatchi bo'lib, qishlokda yashaydi.

Qahramon ma'naviy dunyosining shakllanishida uning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi va odamlarning unga munosabati muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday hayotiy lavhalar tasviri hikoyada badiiy haqiqat darajasiga ko'tarilgan. Yozuvchi ana shu badiiy haqiqatni qahramonlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, ruhiy kechinmalari, do'stlikni tushunish va his eta olish iqtidorini tasvirlash orqati ochib beradi. Azim maktabda o'qib yurganida Ismatlarnikiga borib turardi, uni ovga borishga taklif qilardi. Endi u shaharda o'qib, katta rahbarlik lavozimiga ko'tarildi. Xo'sh, ekdi u qishloqqa kelganida yana Ismatlarnikiga borib turadimi? Bu savolga javob Azimning ma'naviy olamini ravshanlashtiradigan masaladir.

Afsuski, hikoya qahramonlari o'rtasida bolalikdagi munosabatlar bir xilligicha saqlanib qolmaydi. Bu Azimning ma'naviy olamida ko'rinadi. Endi Azim qishlokda kelganida Ismatlarnikiga emas, Ismat Azimlarnikiga uni izlab

boradigan bo'ldi. Albatta, Ismat amaldor do'stidan biror manfaat kutmaydi. Binobarin, Ismat ma'naviy olamining pokligi xuddi shunda ko'rinadi. Uni do'stlik mehri tortadi, yoshlikdagi qadr-don do'stini qo'msaydi, uni ovga taklif etadi. Azim ham yo'q demaydi, birga toqqa yo'l oladi, Azimning bu xatti-harakati tufayli hikoyadagi ikki do'st o'rtasidagi qadr-donlik o'zgarmagandek ko'rinadi. Lekin Azimga xos takabburlik, mug'ombirona kulishlar uning ma'naviy dunyosida, do'stga nisbatan munosabatida soxtalik paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Yozuvchi Azim xarakterida paydo bo'lgan soxta mehr-muhabbatni hayotiy tafsillar bilan ko'rsatib beradi. Birinchidan, u izzat-ikromni xush ko'ra boshlaydi. Ovga ham Ismatning taklifi bilan chiqadi. Ikkinchidan, oldingidek kaklikka mahorat bilan o'q uzolmaydi. Baland cho'qqiga chiqishning ham uddasidan chiqolmaydi. O'lja taqsimotida ham o'zgarish yuz bergan. Endi ovni faqat Ismat qiladi, lekin o'ljalar faqat Azimniki bo'ladi. Azimga xos mug'ombirlik shundaki, u do'stini boladek aldashga urinadi, Ismat unga o'ljalarni berar ekan, Azim uni maqtaydi, haliyam chaqqonligini eslatadi. Soddadil Ismat bu maqtovlarni chin bilib, boshi osmonga yetadi.

“Sog'inch” da Azimning ma'naviy olamida shakllanib borayotgan takabburlik, mug'ombirlik, do'stiga munosabatdagi soxtalik ishonarli hayotiy lavhalar va tafsillar orqali ochilgan. Yozuvchi bu o'rinda tafsil sifatida aprel oyi kunlaridan foydalanadi. Azimning har yili aprel oyida qishloqqa kelishi va Ismat bilan ovga chiqishi an'ana tusiga kirgan edi. Ismat xar yili aprelni alohida bir intiqlik bilan kutadi. Lekin navbatdagi aprel oyida Azim qishlokda bormaydi. U xotini va bolalari bilan ta'tilni o'tkazish uchun Issiqko'lga jo'nab ketadi. Yozuvchi Azim hayotidagi bu voqyeani tasvirlash orqali uning xarakteri va yashash tarzida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning, undagi do'stlar, qishloqdagi og'aynilar, ota-ona va tabiatga nisbatan bo'lgan mexri-yu sog'inch hislari o'z farog'ati-yu rohatini ko'zlash tuyg'usi bilan o'rin almashayotganligini ko'rsatishga erishadi.

Azimning qishloqqa kelmaganligi Ismatning ko'nglida notinchlik uyg'otadi. Uning qalbida sog'inch tuyg'usi mavj urib, Toshkentga telegramma jo'natadi. Uning maqsadi telefonda bo'lsa- da do'stining ovozini eshitish, qishloqqa

kelmaganligining boisini surishtirish edi. Azimning ma'naviy dunyosida faqat do'stga emas, umuman insonga nisbatan mehrning so'nib borayotganligi hikoyada juda ishonarli tarzda ko'rsatiladi:

“ - Kimdan ekan bu?

- Bilmadim, - dedi xotini.

- Onamdanmikan?

- Onangizdan yaqinda xat kelgan edi.

- Shu ... javob yozish kerak edi-da.

- Balki ukangizdandir?

- Ehtimol.

- Azim issiq uyidan chiqib, pochtaga borishga erindi, oqshomgi gazetani o'qishga tutindi, o'qirkan, “Kim bo'lsayam kutadi, kutadi- da, keyin ketadi-da, “keyin vaqti yo'q ekan ... deb o'ylaydi” [9, 108].

Azimni mehr-oqibatdan judo qilgan, ma'naviy qashshoqlik girdobiga tortayotgan kuch nima edi? Hikoya yozuvchining Azim “tabiatan ko'ngli bo'sh, ta'sirchan yigit” degan ta'rifi bilan boshlanadi. Bizningcha, qahramonning ruhiy dunyosi ana shu tasvirda mujassamlashgandir. Azimdagi ko'ngli bo'shlik unda do'stlarga, ota-onaga, o'z qishlog'iga sog'inch tuyg'ularida sovuqqonlik, ba'zan takabburlik uyg'otadi. Undagi ta'sirchanlik alomatlari shundaki, ba'zan o'z xatosini anglaydi, aql-idroksiz aytilgan gaplaridan pushaymon bo'lib, yana o'z qilmishidan afsuslanib ketadi. Buni biz Ismat bilan telefonda sovuqqonlik bilan gaplashishi, lekin uyga qaytgach o'zidagi takabburlikni sezib, Ismatga bo'lgan sog'inch tuyg'ulari uyg'onib, shu his ta'sirida unga xat yozishga kirishishidan chuqur his etamiz.

“Sog'inch” hikoyasida Sh.Xolmirzayev uslubining o'ziga xosligi shundaki, yozuvchi o'z qahramonining ma'naviy olamini ko'rsatish uchun avvalo ana shu olamni yuzaga keltirgan holatlarni o'z shuurida idrok etadi va so'ngra uni badiiy tasvir vositasida ifodalaydi. Yozuvchi Azimning tabiatan ko'ngli bo'shligi va ta'sirchan yigit ekanligini aytish bilan qahramonning qanday inson ekanligini idrok

etib boradi. Shu o'rinda uslub haqidagi quyidagi fikrni keltirib o'tish joizdir: "Haqiqiy uslub doim ichki, lekin shu yerda biz farqlaymiz: 1) Idrok etish uslubi va 2) ifoda qilish uslubi. Idrok etish uslubi mazkur materialni avtorning knday topib olishi, kdyta ishlashi va boyitishida, ifoda kilish uslubi avtorning o'z ichki dunyosini obrazlar va formalar libosiga qanday o'rashida namoyon bo'ladi" [3, 80].

XULOSALAR

Shukur Xolmirzayev bugungi kun o'zbek adabiyotining o'ziga xos uslubga ega bulgan ijodkoridir. Uning hikoyalaridagi qahramonlar ma'naviy olamining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Qahramonlarining xarakterlarida o'zbekona jihatlar umuminsoniylik darajasiga ko'tarilgashshgi bilan tahsinga loyiqdir, Chunki qahmonlarning ma'naviy olamiga alohida ma'no va joziba bag'ishlagan o'sha jihatlar, bugungi kunimiz, davrimiz hodisalari bilan, ya'ni zamondoshlarimizni turmush tarzi, quvonchu-tashvishlari, qolaversa, shakllanayotgan yangi hayot mezonlari bilan bevosita bog'liqdir, Shukur Xolmirzayev bu xislatlarni ustalik bilan o'z qahramonlari ma'naviy olamiga singdirar ekan, albatta, bu yozuvchining mahorati, qolaversa, XX asr o'zbek adabiyotining muayyan yutug'i hamdir.

ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Nasr va uslub; Uslub muammosiga nazariy nigoh va hozirgi o'zbek nasrida uslubiy izlanishlar.- Toshkent: Fan, 1992.- 105 b.
2. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi: Filol.fanlari nomzodi... diss.- Toshkent, 2000.
3. Mamajonov S. Uslub jilolari. -T.: Adabiyot va san'at, 1972.
4. Normatov U. Qalb inqilobi. - T.: Adabiyot va san'at, 1986. - B. 342.
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.- Toshkent: O'qituvchi, 1980.
6. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. – Toshkent: Fan, 1967.
7. Tog'ayev O. Tasvir va muddao // Sharq yulduzi, 1981.- № 11.- B. 118.
8. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1983.- B. 348.
9. Xolmirzaev Sh. O'lis yulduzlar ostida. Hikoyalar. -T., 1968.
10. Xolmirzayev Sh., Yunus T. Insonni kashf etish baxti // Sharq yulduzi, 1993.- № 9.
11. Qo'shjonov M. O'zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janrlar // Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. - T.: Fan, 1991.
12. G'afurov I. O'ttiz yil izhori. – T.: Adabiyot va san'at, 1987.

13.Hamidova M. Epik qahramon va uning tasviri// International Scientific Journal: Science and innovation, Series B. Volume 1 Issue 8, December 2022.-P. 1874-1879.

14.Hamidova M. Shukur Xolmirzayev nasrida badiiy-tasviriy vositalarning oʻrni // Образование и наука в XXI веке: Научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 9 (том 3), декабрь, 2020.- С. 257-260.

15.Hamidova M.O.Shukur Kholmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.

16.Hamidova M.O. National Character and Methodology // Middle European Scientific Bulletin. ISSN: 2694-9970. Volume 25, June, 2022. Pagess 149-158.

17.Hamidova M. Hozirgi oʻzbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navroʻz, 2020.- B.106.